



## XALQ TABOBATI NIMA O'ZI?

*Turdibekov Ahror - Yashnobod tuman adliya bo'limi Yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi Bosh yuriskonsulti*

Xalq tabobati deganda ajdodlar tajribasiga tayangan, xalq urf-odatlarida o'z tasdig'ini topgan an'anaviy (ma'lum bir hudud yoki millatga xos bo'lgan profilaktika, diagnostika va davolash usullari) tibbiyotning tan olingan profilaktika, diagnostika va davolash usullari hisoblanadi.

Bundan tashqari, xalq tabobati bilan birgalikda qo'shimcha tibbiyot ham mavjud bo'lib, unga xalq tabobatining sog'liqni saqlash amaliyotida zamonaviy tibbiyot bilan birgalikda qo'llaniladigan umum e'tirof etilgan usullari misol bo'lishi mumkin.

Hozirgi rivojlangan davrda boshqa sohalar qatori tibbiyot ham ancha rivojlangan bo'lib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Ushbu tibbiyot ilmiy tilda zamonaviy tibbiyot deb ataladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi, zamonaviy tibbiyot tushunchasi nima anglatadi?

Zamonaviy tibbiyot deb ilmiy asoslangan va klinik amaliyotda o'z tasdig'ini topgan usul va yondashuvlar bilan kasalliklarni profilaktika, diagnostika qilish va davolashga qaratilgan rasmiy ilmiy bilimlar va amaliy faoliyatlar tizimi tushuniladi.

Xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda davolashning usullari mavjud bo'lib, ularning ayrimlari ta'qiqlangan hisoblanadi.

Yuqorida xalq tabobatiga nima ekanligi to'g'risida fikr yuritdik.. Endi qanday davolash usullari hisoblanishi, qanday davolash usullari xalq tabobatining davolash usullari hisoblanmasligini muhokama qilamiz.

Amalda bir necha usullar keltirilgan, va ularidan biri okkultizm-afsun, shuningdek diniy marosimlar xalq tabobatining davolash usullari hisoblanmaydi.

Xalq tabobatining bir qancha yo'nalishlari mavjud. Bular:

- Invaziv;
- noinvaziv,



- biologik invaziv,
- parhez va
- o'simlik vositalarini qo'llashdir.

Invaziv bu teri butunligining buzulishi. Va bu o'ziga akupunktura, su-djok terapiya, xijoma va shu kabi usullarni jamalab olgan.

**Zamonaviy tibbiyat orqali tibbiy faoliyat ko'rsatish va xalq tabobati usullarini qo'llash orqali tibbiy faoliyat ko'rsatish o'zaro amalga oshirilishi mumkinmi?**

Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy faoliyat ko'rsatish barcha tibbiyat tashkilotlarida (davlat va xususiy tibbiyat tashkilotlarida) zamonaviy tibbiyat bilan o'zaro komplementar hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

**Xalq tabobati usullari bilan davolashning maqsadga muvofiqligini belgilashda xalq tabobati mutaxassisining tegishli shifokor bilan maslahat qilishi majburiy hisoblanadimi?**

Ha albatta bu majburiy va shart, tegishli mazkur yo'nalishdagi shifokor mutaxassisining maslahati qo'llanmalari kerak bo'ladi.

**Xalq tabobati usullarini qo'llashga qarshi ko'rsatmalar paydo bo'lsa ularni bartaraf etish tartibi qanday?**

Bu savoga javob mazkur tartibda amalga oshiriladi: shifokor bemorning ambulator kartasi yoki kasallik tarixiga ushbu usullarni qo'llash oqibatida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlar haqida unga ma'lumotlar beradi. Bunda bemor shifokor tomonidan berilgan tegishli ma'lumotlar bilan tanishtirilganligi to'g'risida tibbiy hujjalarga tegishli yozuv kiritadi va imzo qo'yadi.

**Xalq tabobati yordamida bemorlashni davolashda nizom talablariga rioya qilmaslik qanday oqibatlarga olib keladi?**

Xalq tabobati sohasida faoliyat olib borish uchun tegishli huquqqa ega bo'limgan shaxs tomonidan fuqarolarga tibbiy tashxis qo'yish va ularni davolash xizmatlarini ko'rsatish hamda mazkur xizmatlarni omma oldida targ'ib qilish, basharti jinoyat alomatlari mavjud bo'lmasa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ***o'n besh baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga***



*esa — yigirma baravaridan yigirma besh baravarigacha* miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xalq tabobati yo‘nalishida ruxsat etilmagan usullarni qo‘llagan holda fuqarolarga tibbiy tashxis qo‘yish va ularni davolash xizmatlarini moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo‘lish evaziga ko‘rsatish, shuningdek mazkur xizmatlarni omma oldida targ‘ib qilish, basharti jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa, bazaviy hisoblash miqdorining *o‘n besh baravaridan yigirma baravarigacha* miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

**Manbalar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarliklar to‘g’risidagi kodeks
2. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2018-yil 27-noyabrdagi 54-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “**Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy faoliyat ko‘rsatish tartibi va hajmlari to‘g‘risida”gi nizom**